2007.

XALQARO MIGRATSIYA VA ODAM SAVDOSI

Mutalif Isroilov
Guliston davlat universiteti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada mehnat migrantlari, migrantlar kontrabandasi va odam savdosi tushunchalari xalqaro huquq me’yorlari asosida tahlil qilingan. Migrantlar kontrabandasi va odam savdosi ikkita alohida jinoyat ekanligi ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: migratsiya, mehnat migrantlari, noqonuniy, migrantlar kontrabandasi, Protokol, odam savdosi.

Bugungi kunda insoniyat tarixida kutilmagan darajada nihoyatda ko‘p sonli kishilarning bir joydan ikkinchi joyga ko‘chishi kuzatilayotgani tufayli migratsiya bilan bog‘liq masalalar dunyoning aksariyat davlatlari, jumladan, Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlari uchun ham g‘oyat dolzarb hisoblanadi. Oxirgi e’lon qilingan ochiq ma’lumotlarga ko‘ra, 2023-yil 1-sentabr holatiga ko‘ra, chet elda mehnat qilayotgan o‘zbekistonlik migrant ishchilar soni qariyb 2,1 million kishiga yetgan. O‘zbekistonlik mehnat migrantlarining asosiy qismi Rossiya Federatsiyasida bo‘lib (62%, 1 million 300 ming kishi), keyingi o‘rinlarda Qozog‘istonda 223 ming (11%), Turkiya Respublikasida 113,1 ming (6%), Koreya Respublikasida 66,8 ming (3%) va boshqa mamlakatlarda 379,9 ming (18%) mehnat migrantlari qayd etilgan. Ushbu migrant ishchilarning 521,8 ming nafarini (24,6%) ayollar va 1 million 596 ming nafarini (75,4%) erkaklar tashkil etgan. Migrant ishchilarning katta qismi (52,7%) qurilish sohasida faoliyat yuritgan [9, b.6-7]. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi (BKQV) huzuridagi Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi (TMMA) tomonidan 2023-yilning yanvar-avgust oylarida tashkil etilgan chet elga ishga yuborish dasturlari orqali 28,207 kishiga chet elda ishga joylashishiga ko‘maklashilgan. Ularning aksariyati Rossiya Federatsiyasiga (20,450 kishi), Koreya Respublikasiga (3,184 nafar) va Buyuk Britaniyaga (1,809 nafar) mehnat faoliyatini olib borish uchun yuborilgan [9, b.7].

So‘nggi vaqtlarda kam sonli O‘zbekiston fuqarolariga aloqador rasmiylashtirilmagan migratsiya holatlari qayd etilgan. O‘zbekiston Ichki ishlar vazirligi (IIV) mamlakatda rasmiylashtirilmagan migratsiya va odam savdosi bilan bog‘liq masalalar bilan shug‘ullanuvchi asosiy davlat organi hisoblanadi. O‘zbekiston fuqarolari ishtirokidagi odam savdosi bilan bog‘liq ma’lumotlar AQShning Odam savdosi bo‘yicha yillik hisobotida (USTIP) va O‘zbekiston IIV tomonidan taqdim etiluvchi hisobotlar orqali topilgan. IOM rasmiy murojaati orqali O‘zbekiston IIVdan olingan ma’lumotlarga ko‘ra, 2023-yilning o‘n bir oyida odam savdosining 141 ta holati qayd etilgan va 193 nafar odam savdosi qurboni aniqlangan (18 nafar erkak, 133 nafar ayol va 42 nafar 18 yoshgacha bo‘lgan shaxslar). O‘zbekiston fuqarolari ishtirokidagi odam savdosining asosiy yo‘nalishlari Turkiya Respublikasi, Qozog‘iston, Rossiya Federatsiyasi, BAA va Hindiston bo‘lgan [9, b.11-12].

Odam savdosi va migrantlar kontrabandasi murakkab hodisa bo‘lib, odamlarga turli yo‘llar bilan ta'sir qiladi. Va ular ba'zan bir-biriga bog‘liq bo‘lsa-da, turli jinoyatlar haqida gap boradi. UNODC (BMTning narkotiklar va jinoyatchilik bo‘yicha boshqarmasi) ta’rifiga ko‘ra, odam savdosi ekspluatatsiya qilish, masalan, jinsiy ekspluatatsiya, majburiy mehnat, qullik yoki organlarni olib tashlash maqsadida odamlarni yollash, ko‘chirish yoki boshpana berishni o‘z ichiga oladi. Bolalar yoki kattalar, o‘g‘il bolalar, qizlar, erkaklar yoki ayollar kuch ishlatish bilan tahdid qilish yoki ishlatish, firibgarlik sxemalari, aldash yoki hokimiyatni suiiste'mol qilish kabi noto‘g‘ri vositalar orqali odam savdosining qurboni bo‘lishlari mumkin. Odam savdosi bir mamlakat ichida ham, transchegaraviy asosda ham sodir bo‘lishi mumkin. Shuning uchun u harakat (odamlarni

yollash, tashish, o‘tkazish, boshpana berish yoki qabul qilish), o‘ziga xos vositalar (qo‘rqitish yoki kuch ishlatish, aldash, firibgarlik, hokimiyat yoki kimningdir zaif mavqeini suiiste'mol qilish) va ekspluatatsiya maqsadi (masalan, jinsiy aloqa, ekspluatatsiya, majburiy mehnat, qullik yoki organlarni olib tashlash) bilan tavsiflanadi [7].

Ham milliy, ham transchegaraviy darajada sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan odam savdosidan farqli o‘laroq, migrantlar kontrabandasi faqat transchegaraviy darajada sodir bo‘ladigan jinoyatdir. Bu muhojirlarga moliyaviy yoki moddiy manfaatlarni qo‘lga kiritish uchun noqonuniy ravishda mamlakatga kirish yoki qolishga yordam berishdan iborat. Kontrabandachilar muhojirlarning ma'lum bir davlatga zarur huquqiy hujjatlarsiz kirish ehtiyojlari va/yoki xohishlaridan kelib chiqib, foydali biznes quradilar. Xalqaro huquq hukumatlarni muhojirlarga nisbatan emas, balki ularni kontrabanda qilish bilan shug‘ullanuvchi shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortish majburiyatini yuklaydi. Chunki, muhojirlar (ya’ni migrantlar) asosan qonuniy migratsiya vositalariga ega bo‘lmagani uchun kontrabandaga rozi bo‘lganligi sababli, ular, to‘g‘risini aytganda, qurbonlar deb hisoblanmaydi. Biroq, kontrabandachilar tomonidan ko‘pincha noqonuniy olib kirilayotgan (kontrabanda qilinayotgan) shaxslar turli xavf-xatarlarga (xavfli dengiz transporti kabi) duchor bo‘ladilar, bu esa kontrabanda jarayonida ularni boshqa jinoyatlarga, jumladan, jiddiy inson huquqlarining buzilishiga olib kelishi mumkin. Kontrabandachilar muhojirlarning ma'lum bir davlatga zarur huquqiy hujjatlarsiz kirish ehtiyojlari va/yoki xohishlaridan kelib chiqib, foydali biznes quradilar. Xalqaro huquq hukumatlarni muhojir kontrabandachilarni jinoiy javobgarlikka tortish majburiyatini yuklaydi, ammo kontrabandachilarni emas [5].

Odam savdosi bilan shug‘ullanuvchilar xavfsizlik va imkoniyatlarga juda muhtoj bo‘lganlarni o‘z maqsadlari yo‘lida nazorat qilish uchun tahdid va yolg‘ondan foydalangan holda o‘lja qilishadi. Yaxshi hayotga xavfsiz yo‘lni va'da qilganlarning talablariga rozi bo‘lganlarning ko‘pchiligi ayollar va bolalardir. Yaqinda immigratsiya qoidalarining qattiqlashishi bilan migratsiya yo‘llari ko‘pincha uzoqroq, qimmatroq va hayotga xavf tug‘diradigan bo‘ldi. Bu qattiqlashuv qonuniy migratsiya imkoniyatlarini cheklash orqali kontrabanda va odam savdosi bilan shug‘ullangan jinoyatchilarga beixtiyor yordam beradi.

Ko‘pchilik uchun "odam kontrabandasi" va "odam savdosi" atamalari bir-birining o‘rnini bosadigan bo‘lib, bu ikki tushuncha o‘rtasidagi farqning xiralashishiga olib keldi. Va shunga qaramay, nufuzli xalqaro tashkilotlar va ushbu sohadagi ekspertlar tomonidan tez-tez ta'kidlanganidek, bular ikkita alohida jinoyat hisoblanadi. Kontrabanda har doim xalqaro chegarani kesib o‘tishni o‘z ichiga oladi va kontrabandachiga mamlakatga kirish uchun pul to‘laydigan odamlar buni ixtiyoriy ravishda qiladilar. Yevropol hisob-kitoblariga ko‘ra, hujjatlarni qalbakilashtirishdan tortib huquq-tartibot idoralari xodimlariga pora berishgacha bo‘lgan xizmatlarni ko‘rsatuvchi migrant kontrabandasi tarmoqlari aylanmasi 3 milliard yevrodan 6 milliard yevrogacha bo‘lgan [3].

Odam savdosi jabrlanuvchini ekspluatatsiya qilish uchun jismoniy yoki ruhiy majburlashning qandaydir shakllarini o‘z ichiga oladi. Odam savdosi aniq inson huquqlari va shaxsiy qadr-qimmatini qo‘pol ravishda buzish hisoblanadi. BMTning Odam savdosining oldini olish, bostirish va jazolash to‘g‘risidagi Protokolining 3-moddasida ta’kidlanganidek, ekspluatatsiya tushunchasi “hech bo‘lmaganda, fohishalik va boshqa shaxslarni ekspluatatsiya qilish yoki jinsiy ekspluatatsiyaning boshqa shakllari, majburiy mehnat yoki xizmatlar, qullikni yoki organlarni olib tashlashga o‘xshash amaliyotlarni o‘z ichiga oladi"[3].

Aytish joizki, jismoniy shaxslarning mazmunan har xil va ijtimoiy xavfli bo‘lgan transchegaraviy harakatiga qarshi kurashishning huquqiy asosini BMTning tegishli rezolyutsiyalari bilan qabul qilingan ikkita Protokoli tashkil qiladi: Muhojirlarni quruqlik, dengiz va havo orqali kontrabandasiga qarshi Protokol (Migrantlar kontrabandasiga qarshi Protokol deb yuritiladi) [1] va Odamlar, ayniqsa ayollar va bolalar savdosining oldini olish, unga chek qo‘yish va jazolash to‘g‘risidagi Protokol (Odam savdosini oldini olish unga qarshi kurashish Protokoli deb yuritiladi) [2]. Ular Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi BMT konventsiyasini to‘ldiradi.

Migrantlar kontrabandasiga qarshi Protokolning 3 (a) moddasiga muvofiq, migrantlarni kontrabanda qilish deganda, bevosita yoki bilvosita har qanday moliyaviy yoki boshqa moddiy

manfaat olish maqsadida ishtirokchi-davlatga uning fuqarosi bo‘lmagan yoki uning hududida doimiy yashamaydigan har qanday shaxsning noqonuniy kirishini ta’minlash tushuniladi. Noqonuniy kirish - bu qabul qiluvchi davlatga qonuniy kirish uchun zarur bo‘lgan talablarga javob bermasdan chegaralarni kesib o‘tishdir [1]. Ya'ni, migrantlarning kontrabandasi - belgilangan talablarni buzgan holda, ma'lum bir toifadagi shaxslarga transchegaraviy harakatda haq evaziga yordam ko‘rsatishdir. Bu yerda potentsial muhojir jabrlanuvchi emas, balki "tashuvchi" ning mijozi bo‘lib, "tashuvchi" tomonidan jinoyat sodir etishiliga tashabbuskorlik qiladi.

Odam savdosining oldini olish va unga chek qo‘yish to‘g‘risidagi Protokolning 3 (a) moddasiga muvofiq, odam savdosi deb jismoniy, ruhiy va boshqa majburlash shakllari orqali odamlarni ekspluatatsiya qilish maqsadida, ularni yollash, ko‘chirish, tashish, joylashtirish yoki qabul qilish, odam o‘g‘irlash, firibgarlik, aldash, mansab vakolatini yoki zaif mavqeini suiiste’mol qilish, shaxsning roziligini olish uchun to‘lov yoki boshqa imtiyozlar ko‘rinishida pora berish yo‘li bilan sodir etilishi tushuniladi. "Odam savdosi" va "migrantlar kontrabandasi" tushunchalarini farqlashning asosiy mezoni bo‘lib oxirgi holatda transchegaraviy harakatga rozilik elementining mavjudligi hisoblanadi [4, b. 34-37; 6, b. 38]. Noqonuniy olib kirilgan shaxs oxir-oqibat o‘z yashash mamlakatini o‘zgartirishga qaror qilgan xalqaro migrant bo‘ladi.

Potentsial migrant chegarani kesib o‘tish jarayonining tashabbuskori hisoblanadi. U mezbon mamlakatni tark etishga tayyorligini bildiradi, bu borada unga yordam bera oladigan “tashuvchi”ni qidira boshlaydi va u bilan shartnoma tuzadi. Aytish mumkinki, ixtiyoriy harakat kontrabanda muhojirining muhim xususiyati bo‘lib, odam savdosi esa chegaralarni majburan o‘tib ketkazishga asoslangan. Migrant odam savdosidagi kabi jinoyat qurboni emas, balki mijoz (noqonuniy xizmatni so‘ragan) passiv rolini o‘ynaydi.

Bugungi kunda insoniyat tarixida kutilmagan darajada nihoyatda ko‘p sonli kishilarning bir joydan ikkinchi joyga ko‘chishi kuzatilayotgani tufayli migratsiya bilan bog‘liq masalalar dunyoning aksariyat davlatlari, jumladan, Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlari uchun ham g‘oyat dolzarb hisoblanadi. Globallashuv jarayonlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari taraqqiyotidagi sakrashlar, transport imkoniyatlarining tubdan kengaygani va boshqa shu kabi omillar, shubhasiz, migratsiya oqimi ortishiga kuchli ta'sir ko‘rsatmoqda.

Globallashuv va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanayotgan bir paytda transmilliy uyushgan jinoyatchilik ham tobora ko‘paymoqda. Bu illatning muttasil o‘sishida iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqalarning kuchayib borayotgani, yangi hamkorlik munosabatlari yuzaga kelayotgani muhim rol` o‘ynamoqda. Bunda, ayniqsa, axborot texnologiyalari ko‘magida yangidan-yangi imkoniyatlarning taqdim etilayotgani juda qo‘l kelmoqda. Buning oqibatida hozirgi globallashuv davriga xos global muammolardan biri – odam savdosi katta tashvish uyg‘otmoqda. Yaqinda Buyuk Britaniyaning “Guardian” nashri, Xalqaro mehnat tashkiloti va “Walk Free Foundation” ma'lumotlariga tayangan holda, ushbu holatga quyidagicha baho berdi. Ya'ni, hozirgi kunda sayyoramiz aholisining taxminan 40 million 300 ming nafari zamonaviy qullik iskanjasidadir [8].

O‘zbekiston Xalqaro migratsiya tashkilotining to‘laqonli a'zosi hisoblanadi. Mamlakatimiz ushbu nufuzli tashkilot odam savdosiga qarshi kurashish va uning jabrdiydalariga ko‘mak berish sohasida amalga oshirilayotgan dasturlarda ishtirok etib kelmoqda. Jahon hamjamiyati tomonidan 2018 yilning dekabrida Marokashda Migratsiya bo‘yicha global shartnoma qabul qilindi. Ushbu xalqaro hujjatni O‘zbekiston ham qo‘llab-quvvatladi.

Mamlakatimizda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, sud-huquq tizimini isloh etish yo‘lida keng qamrovli o‘zgarishlar izchillik bilan joriy etilmoqda. Jinoyatchilikka, jumladan odam savdosiga qarshi kurashish va majburiy mehnatga barham berish masalalariga ustuvor darajada e'tibor qaratilib, ushbu huquqbuzarliklarning oldini olish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston hukumati mehnat migrantlari – mamlakatimizning xorijdagi fuqarolari himoya qilish, shuningdek, odam savodasi jabrdiydalari va ojiz migrantlarga yordam berish masalalariga tobora katta e'tibor qaratmoqda.

Adabiyotlar:

1. Протокол против ввоза мигрантов по суше, морю и воздуху (Принят в г. Нью-Йорке Резолюцией 55/25 на 62-м пленарном заседании 55-ой сессии Генеральной Ассамблей ООН от 15 ноября 2000г.) // Собрание законодательства РФ. 2004. № 40. Ст. 3882.

2. Протокол о предупреждении и пресечении торговли людьми, особенно женщинами и детьми и наказании за нее (Принят в г. Нью-Йорке Резолюцией 55/25 на 62-м пленарном заседании 55-ой сессии Генеральной Ассамблей ООН от 15 ноября 2000г.) // Собрание законодательства РФ. 2004. № 40. Ст. 3882.

3. Джарбусынова М. Миграция и торговля людьми: неразрывная связь // Сообщество безопасности, издание 3/2016. URL: https://www.osce.org/ru/magazine/315236

4. Исабеков, К. С. Правовое регулирование в соответствии с Протоколом ООН против незаконного ввоза мигрантов // Вестник Кыргызско-Российского славянского университета. 2013. Т. 13. № 5.- С. 34-37.

5. Международная миграция и развитие: Доклад Генерального секретаря ООН от 04.08.2016 г. URL: http://www.un.org/en/development/desa/population/migration/generalassembly/docs/A_71_296_R.pdf

6. Потемкина, О. Ю. Иммиграционная политика Европейского союза: проблемы и перспективы.- М. : Русский сувенир, 2010.

7. Торговля людьми и незаконный ввоз мигрантов URL: https://www.unodc.org/e4j/ru/secondary/human-trafficking-and-migrant-smuggling.html

8. Global muammolardan biri – odam savdosi katta tashvish uyg'otmoqda / http://pravacheloveka.uz/oz/news/odnoj-iz-globalnyh-problem-javljaetsja-torgovlja-ljudmi 01.11.2019

9. Migratsiya vaziyatiga oid hisobot. 2023-yil aprel-sentyabr. // B.6-7. https://dtm.iom.int/sites/g/files/tmzbdl1461/files/reports/O'zbekiston.pdf